

TA'LIM OLISH HUQUQINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Xo'jamberdiyev Ro'zimahammad Yigitali o'g'li

Andijon viloyati Buloqboshi tumani adliya bo'limi
yuridik xizmatlar markazi bosh yuristkonsulti

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning ta'lif olish huquqi o'zining tarixiy rivojlanish bosqichlariga ega. Bilim olish huquqini bosqichlarga bo'lib o'r ganish: birinchidan, bilim olish huquqining turli davrlardagi holatiga baho berish va ularni tizimlashtirish imkonini yaratadi; ikkinchidan, turli davrdagi holatlarini taqqoslash va tarixiy ahamiyatini hozirgi zamon uchun o'zlashtirishda qo'l keladi; uchinchidan, bilim olish huquqining tarixan shakllangan asoslarini o'r ganishni yengillashtiradi; to'rtinchidan, ilmiy xulosalar chiqarishga ko'mak beradi.

"Bilim olish huquqining rivojlanish bosqichlari va tendensiyalari ahamiyati quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasida bilim olishning huquqiy asoslari o'z rivojlanish tarixiga ega ekanligi, jamiyatimizda ta'lif-tarbiyaning huquqiy qadriyat sifatida shakllanib ulgurganligi;
- O'zbekiston Respublikasida hozirgi zamon ta'lif qonunchiligining rivojlanishi uchun tarixiy tajribalarga aylangan asos yaratadi;
- ta'lif sohasida to'g'ri va adolatli davlat siyosatining yo'nalishlarini belgilab olish;
- ta'lif sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish;
- ta'lif olishning yangi usul va vositalarini ishlab chiqish, joriy etish va sinab ko'rish imkonini beradi;
- O'zbekiston Respublikasida bilim olish ququqining rivojlanish bosqichlari va tendensiyalari ta'lif-tarbiya jarayonida yakka mafkuralikdan qochish hamda turli mafkuralarga asoslanish kerakligini isbotlaydi;
- bilim olish huquqi inson huquq va erkinliklari tizimining ajralmas qismi ekanligini e'tirof etish;
- O'zbekiston Respublikasida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lida hal etilishi lozim bo'lgan eng muhim masala ekanligini anglash"¹.

XX asrning boshlarida O'zbekiston xududida bilim olish huquqini o'zida mustahkamlagan bir necha hujjatlar hamda konstitutsiyalar qabul qilindi. Bularda bilim olish huquqining mustahkamlanishi mazmuni va ahamiyatidan kelib chiqib bilim olish huquqining rivojlanish bosqichlari va tendensiyalarini belgilab olish mumkin.

Birinchi bosqich - XX asrning boshlaridan to mustaqillik yillarigacha bo'lgan davr;

¹Asadov Sh. G'. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini bilim olish huquqining konstitutsiyaviy asoslari. Nomzod...disertatsiyasi. - Toshkent,2009

Ikkinch boskichO‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishishidan to shu kunga qadar bo‘lgan ta’lim sohasidagi davr.

Birinchi bosqich - XX asrning boshlaridan to mustaqillik yillarigacha bo‘lgan davr. “Jadidchilik harakatining vujudga kelishi hamda ular tomonidan ishlab chiqqan hujjatlar, shuningdek Turkiston ASSR, Xorazm XSR, Buxoro XSR Konstitutsiyalarida ilk marotaba bilim olish huquqi mustaxkamlandi. Ushbu Konstitutsiyalar Rossiyaning milliy davlatchilik manfaatlari asosida, ularning yashash tarziga mos ravishda qabul qilingan”².

O‘zbekiston SSRning tashkil topishi va uning 1927, 1937, 1978 yillarda qabul qilingan Konstitutsiyalarida bilim olish huquqiga oid qoidalar o‘z aksini topgan.

Ma’lumki, Rossiya imperiyasida 1917-yil oktabr oyida davlat to‘ntarishi bo‘lib o‘tdi, o‘zlarini xalqparvar deb e’lon qilgan kommunistlar xokimiyatni qo‘lga oldilar. Shundan keyin ular Urta Osiyoda ham xalq hokimiyatini o‘rnatish kabi soxta goyalar singdirilgan konstitutsiyalarini qabul qilishdi.

“Bu davrda O‘rta Osiyoda, jumladan Buxoro, Xiva va Turkiston o‘lkasida jadidchilik-ma’rifatparvarlik harakati rivojlangan. Hattoki, ta’lim soxasida yuqoridaq soxta konstitutsiyalardan oldin Buxoro jadidlari tomonidan ta’lim soxasida rasmiy hujjat qabul qilingan. “Buxoro ta’limi maorif jamiyat”ning hijriy 1327-(milodiy 1908) yilda Istanbulda qabul qilingan nizomi (ustavi)da jamiyatning asosiy siyosiy maqsadi Buxoro xalqi o‘rtasida maorifni tarqatish ekani ta’kidlangan.

Yosh buxoroliklar partiyasining Fitrat va Fayzulla Xo‘jayev tomonidan ishlab chiqilgan dasturlarida yosh buxoroliklar umumiyl tekin boshlang‘ich ta’limni joriy qilishni maqsad qilib qo‘yishgan”³.

Shunga o‘xshash holatlar “Xivada ham kuzatilgan. 1918-yil iyul oyida Yosh xivaliklar yangi dasturlarini ishlab chiqdilar. Bunda ular o‘zlarini Xiva inqilobiy partiyasi deb ataganlar, Dasturda qo‘yilgan talablar ichida bolalarni bepul o‘qitish uchun Xivada maktablar ochish nazarda tutilgan”⁴.

Turkiston jadidlari faoliyati butun o‘lkani qamraydigan, “Inglizlarning “skautning mактаб dusturi”ga yaqin dastur asosida ishlaydigan “Turon kuchi”, “Turk kuchi”, “Temur”, “Izchilar”, “Lochin” kabi guruxlarini tuzdilar, Bu guruhi lar o‘rta maktab ta’limi, hunar, san’atdan tashqari, harbiy mashklar bilai shugullanib, sovetlarga asosiy zarba beruvchi kuch sifatida ko‘rina boshladi. 1920-yilda sovet rejimi bu guruxlar faoliyatini tugatadi”⁵.

² Asadov Sh. G‘. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini bilim olish huquqining konstitutsiyaviy asoslari. Nomzod...disertatsiyasi. - Toshkent,2009

³Qarang: XX ayer boshlarida turkiston yoshlari //Elektron resurs. Rejim dostupa: www.huquqburch.uz/?lang=ru&p=maq13

⁴ Qarang: XX ayer boshlarida turkiston yoshlari// Elektron resurs. Rejim dostupa: www.huquqburch.uz/?lang=ru&p=maq13

⁵ Asadov Sh. G‘. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini bilim olish huquqining konstitutsiyaviy asoslari. Nomzod...disertatsiyasi. - Toshkent,2009

“Sovet davlati tomonidan mahalliy aholining rus tilini bilmaslik mezonidan kelib chiqib, “O’rta Osiyoda o‘zbeklarning 2% savodli bo‘lgan” degan noto‘g‘ri statistik ma’lumotlar chiqarilgan. Hozirgi O‘zbekiston hududida 1917-yilda 160 ta maktab bo‘lib, ularda 17.300 bola, texnikumlarda 58,1 ming bola o‘qigan”⁶.

1921-yilning noyabrida TASSRda savodsizlikni tugatish bo‘yicha maxsus dekret chiqarildi. Dekretga ko‘ra, 8 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan fuqarolarni savodli qilish uchun savodsizlikni tugatish maktablari ochildi. 1923-yilda TASSRda savodsizlikni tugatish bo‘yicha o‘lka favqulodda komissiyasi tuzildi.

“Yangi sovet maktablari ochilib, unda ahvol juda achinarli edi. Bu maktablar o‘quvchilarining deyarli barchasi rus bolalari bo‘lib, maktablarining darsliklar bilan ta’milanishi ham yomon ahvolda edi. Chunki, 1924-yilda chiqarilgan kitoblarning 25% o‘zbek tilida bo‘lgan”⁷,

BXSR fuqarolarining inqilob orqali sotsial huquqlar bilan bir qatorda, bilim olish huquqiga ega bo‘lgan. “Mamlakat miqyosida ijtimoiy sohaga bo‘lgan e’tibor ta’lim-tarbiya jarayonini ham chetlab o‘tmadi. Xalq ta’limida sezilarli natijalar va rivojlanishga erishildi. Maktablarning soni 1922-yilda 55 tadan 1923-yil oxirida 70 taga o‘sdi. 1923-yil 11-avgustda BKP MQ tomonidan Buxorada xalq ta’limining ahvoli bo‘yicha maxsus munozara tashkillashtirildi. Unda axolining savodxonlik darajasi ancha orqada ekanligi, buning asosiy sabablaridan biri eski maktab tizimida diniy yo‘nalishda ta’lim berilishi, ruxoniylarning dunyoviy maktablarga qarshi chiqishidir, deb ta’kidlangan. Buxoroda inqilobdan so‘ng kadrlarning yetishmasligi tufayli yangi dunyoviy usulda o‘qitadigan 120 ta maktabdan 68 tasi o‘z faoliyatini saqlab qolgan. Pedagogik kadrlarni tayorlash bo‘yicha Buxoro va Chorjo‘yda 1922-yilda o‘qituvchilar instituti ochilgan. Xalq ta’limi rivojiga 1923-yildan boshlab budgetning 1922-yilgi 8% o‘rniga 25% ajratildi”⁸. Moskvaga 300 nafar Buxoro yoshlari o‘qishga jo‘natildi.

O’rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o‘tkazilishi natijasida yuqorida ko‘rsatilgan davlatlar o‘rnida O‘zbekiston va Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR, Qirg‘iziston va Qoraqalpog‘iston Avtonom viloyatlari tashkil etilgan.

“O‘zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi 1927-yil 27-31-mart kunlari bo‘lib o‘tgan Sovetlarining II s’ezdida qabul qilingan. Unda ilk marotaba O‘zbekistonda bilim olish huquqi mustahkamlandi va ta’limning bepulligi e’tirof etildi. Konstitutsiyaning 10-moddasida “Mehnatkashlarning ta’lim olishini ta’minalash maqsadida O‘zSSR ishchi va dehqonlar sinfining to‘liq, xar tomonlama va bepul bilim olishini o‘z zimmasiga vazifa qilib qo‘yadi”⁹.

⁶Qarang: Пицусина Е. П. Право на образование в СССР. - М.: Изд-во Академии наук СССР, 1957. - С. 9-11.

⁷Qarang: Tangirova X. O‘zbekiston madaniyati va san’ati tarixi fanidan ma’ruza materiallari // Elektron resurs.

www.ursu.uzpak.uz/ursulib/taqdimot/madaniyattarix/27.htm

⁸Qarang: Ншанов А.И. Бухарская Народная Советская Республика. - Тошкент: Узбекистан ,1969. - С. 345.

⁹Qaranag: Конституция (Основной закон) Узбекской Советской Социалистической Республики. – Самарканд Юридического Издательство СНК У ССР, 1927. - С. 2.

Ushbu normada fuqarolarning bilim olish ququqiga faqat sinfiylik nuqtai nazardan yondashilgan va bu huquq faqat ishchi va dehqonlargagina berilishi e'tirof etilgan.

1937-yil 14-fevralda Butun O'zbekiston Sovetlarining Favqulodda VI-s'ezdi O'zSSRning ikkinchi Konstitutsiyasini SSSRning 1936-yilgi Konstitutsiyasiga mos ravishda qabul qilgan. Konstitutsianing X bobi ... fuqarolarning asosiy huquqlari va burchlariga bag'ishlangan bo'lib, uning 120-moddasida bevosita bilim olish huquqi mustahkamlangan. Unga ko'ra, "O'zSSR fuqarolari bilim olish huquqiga ega. Bu huquq umummajburiy bepul boshlang'ich ta'lim, shuningdek mehnatkashlarga bepul texnik ishlab chiqarish va agronomik bilimlarni, oliy ta'lim, oliy maktablarda o'qiydiganlarni davlat stependiya ta'minoti, maktablarda ta'lim turli xil tillarda amalga oshirilishi, uni zavodlarda, sovxozlarda, mashina traktor stansiyalarida va kolxozlarda tashkillashtirish orqali ta'minlanadi"¹⁰.

Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, "O'zSSRning 1937-yilgi Konstitutsiyasida fuqarolarning faqat boshlang'ich va texnik ishlab chikarish hamda agronomik sohalarda bilim olish huquqining mustahkamlanganligi ma'lum ma'noda ta'lim doirasini sun'iy ravishda cheklab qo'ygan. Ijobiy tomondan qaraganda, ta'limning bepul amalga oshirilishi, ayniqsa boshlang'ich ta'limning aholi o'rtasida savodxonlikni oshirishda o'sha davr uchun ahamiyati katta bo'ldi"¹¹.

O'zSSRning 1978 yilgi Konstitutsiyasining mazmunida ham bilim olish huquqi ushbu keltirilgan sotsialistik qarashdan holi emas edi. O'zSSRning 1978-yilgi Konstitutsiyasi 43-moddasida "O'zbekiston SSR fuqarolari bilim olish huquqiga ega. Ushbu huquq barcha ta'lim turlarining bepulligi, ishlab chiqarish va hayot tarzi bilan uzviy bog'liq holda yoshlarga umummajburiy o'rta ta'limni amalga oshirish, kasbiy texnik, o'rta maxsus va oliy ta'limni keng rivojlantirish; sirtqi va kechki ta'limni takomillashtirish; talaba va o'quvchilarga imtiyozlar hamda davlat stipendiyalarini joriy etish, maktab darsliklarini bepul tarqatish, maktabda ona tilida ta'lim olish imkonini berish, mustaqil ta'limga shart-sharoit yaratish orqali ta'minlanadi"¹², deyilgan

O'zSSRning 1978-yilgi Konstitutsiyasining 43-moddasida mustaxkamlangan bilim olish huquqi bir muncha keng talqin qilingan.

Sobiq sho'ro zamonida ta'lim tizimidagi millatni yorug'likka olib chiqaruvchi barcha harakat, g'oya va gap soxtaligicha, yanayam aniqrog'i, barkamol avlod haqidagi orzular orzuligicha qolib ketar edi. Bu g'oyani amalga oshirish imkonnyatining yo'qligi sababli O'zbekiston ham mafkuraviy, ham iqtisodiy jihatdan tobe edi.

¹⁰Qarang: Конституция (Основной закон) Узбекской Советской Социалистической Республики. - Ташкент: ЦККП(6) Уз, 1937. - С. 28.

¹¹ Asadov Sh. G'. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini bilim olish huquqining konstitutsiyaviy asoslari. Nomzod...disertatsiyasi. - Toshkent,2009

¹²Qarang: Конститутуция (Основной закон) Узбекской Советской Социалистической Республики, - Ташкент: ЦККП(6) Уз. 1978. - С. 32.

Ikkinch bosqich O‘zbekiston Respublikasining davlatmustaqilligiga erishishidan to shu kunga qadar bo‘lgan ta’lim sohasidagi ijtimoiy hayot. Ushbu bosqichni tavsiflovchi xususiyat va omillarga tayanganholda ikki muhim davrga ajratamiz.

Birinchi davr 1991-1997-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrning o‘ziga xos asosiy xususiyatlarini “1991-yil 31-avgustda “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonun”¹³ qabul qilinishi bilan va unda O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligining joriy etilishini belgilovchi qoidalarda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining ustuvorligi, unga muvofiq bilim olish huquqining e’tirof etilganligini anglash mumkin. “1992-yilining 2-iyulida qabul qilingan qonunda ilk marotaba O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining bilim olish huquqini ta’minalashga qaratilgan normalar o‘z aksini topgan”¹⁴, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi bilan inson huquqlariga bo‘lgan yangicha demokratik yondashuv konseptsiyasi mustahkamlandi, unda fuqarolarning bilim olish huquqiga oid huquqiy kafolatlar belgilab berildi. Xusan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida har kim bilim olish huquqiga egaligi va bepul umumiyy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanishi, maktab ishlari davlat nazoratida ekanligini belgilovchi qoidalari o‘z aksini topgan.

Birinchi davrning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning bilim olish huquqi xalqaro-huquqiy normalar ustuvorligi tan olingan holda Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yildi;
- fuqarolarning bilim olish huquqini amalga oshirishda sobiq sho‘rolar tizimi joriy etgan yagona mafkuraga asoslangan va tarixga, milliy madaniyatga hamda ta’lim sohasidagi umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan sun’iy yondashuvdan voz kechildi;
- ta’lim sohasiga oid davlat boshqaruv organlari faoliyati qayta tashkil etildi;
- oliy o‘quv yurtlariga kirishning yangi test-sinov tizimi hamda ularda ta’lim olishning to‘lov-konrtakt shakli joriy etildi;
- viloyatlarda oliy ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi, jumladan, institutlar bazasida universitetlar tashkil topdi;
- muayyan yo‘nalish va fanlarga ixtisoslashgan gimnaziyalar tashkil etildi;
- maktabgacha ta’lim muassasalari vujudga keldi”¹⁵.

Ikkinci davr 1997-yildan to hozirga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, ushbu davr O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, yangi taxrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi Prezidentimiz tomonidan ta’lim tizimini yaniy Xalq

¹³O‘zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonuni Uzbekiston SSJning Oliy Kengasha axborotnomasi. – 1991 - №11. - 246-modda.

¹⁴ Batafsil qarang: 1992-yil 2-iylda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni // O‘zbekistoi Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. - 1993. - № 6. - 268-modda.

¹⁵Asadov Sh. G*. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini bilim olish huquqining konstitutsiyaviy asoslari. Nomzod...disertatsiyasi. - Toshkent,2009

tal’limi, Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyanini qabul qilinishi va unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlarning amalga oshirish bosqichlari bilan ifodalanadi. Ikkinchi davrning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzlusizligini ta’minlash va samarali tizimini yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar davri bo‘ldi, hamda ushbu islohotlar “O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan uch bosqichda amalga oshirilishi mustahkamlandi;

- umumiy o‘rta ta’lim olishning boshlangich sinflariga 6 va 7 yoshdan kabul qilish amaliyoti ko‘llana boshlandi;

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini o‘z ichiga olgan 12 yillik majburiy ta’lim tizimi joriy etildi hamda amaliyotga to‘liq tadbiq etildi;

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi to‘liq yangilandi va zamonaviy o‘quv qurorollari bilan jihozlandi;

oliy ta’limni dunyo mamlakatlari tajribasida sinalgan bakalavriat va magistratura bosqichlarida amalga oshirish tizimi yaratildi;

ta’limning barcha bosqichlariga oid ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha davlat ta’lim standartlarini takomillashtirib borish mexanizmining samarali amalga oshirilishi uchun tegishli huquqiy asoslar ishlab chiqildi”¹⁶.

O‘zbekiston Respublikasida maktab ishlari davlat nazoratida ekanligi: birinchidan, xalq ta’limini rivojlantirish davlat uchun inkor etib bo‘lmaydigan strategik vazifa ekanligini; ikkinchidan, maktablar faoliyati moliyaviy jihatdan to‘liq davlat budgeti tomonidan qoplanishini; uchinchidan, maktablarda ta’lim sohasidagi qonunchilikka rioya etilayotganligi tegishli davlat organlari tomonidan tekshirilishini; to‘rtinchidan, har bir fuqaroga umumiyligi ta’limni maktablar orqali amalga oshirishning ta’minlanganligini anglatadi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda o‘z fikr va dunyoqarashiga ega bo‘lgan kadrlarni tarbiyalash zamon talabidir. Shunday ekan, ushbu bosqichda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, dunyoning rivojlangan davlatlari bilan ushbu sohada hamkorlikni kuchaytirish eng muhim vazifalardan biri bo‘lib turibdi. Shuning uchun ham ta’lim sohasiga davlatimiz alohida g‘amxo‘rlik kilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o‘ziga xos yo‘lini tanlashi kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo‘ydi va qator chora-tadbirlar ko‘rishni: “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilishni; yangi o‘quv rejalarini, dasturlari, darsliklarini joriy etishni, zamonaviy didaktik ta’minotni ishlab chikishni; o‘quv yurtlarini attestatsiyadan o‘tkazishni va

¹⁶Asadov Sh. G*. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini bilim olish huquqining konstitutsiyaviy asoslari. Nomzod...disertasiysi. - Toshkent,2009

akkreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta’lim muassasalarini tashkil etishni taqozo etdi”¹⁷. O‘zbekistonda bilim olish huquqi mustaqil rivojlanish tarixiga egaligi, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish va rivojlantirish boy tarixiy merosimizga borib taqalishiga guvoh bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

- 1.O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan qonuni bilan tasdiqlangan Kadrlar taylorlash milliy dasturi // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. - 1997.
- 2.Asadov Sh. G‘. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini bilim olish huquqining konstitutsiyaviy asoslari. Nomzod...disertatsiyasi. -Toshkent,2009
- 3.Конституция (Основной закон) Узбекской Советской Социалистической Республики, - Ташкент: ЦККП(6) Уз. 1978. - С. 32.
- 4.O‘zbekiston Respublikasining Davlat Mustakilligi asoslari to‘grisida”gi konstitutsiyaviy qonuni Uzbekiston SSJning Oliy Kengasha axborotnomasi. – 1991 - №11. - 246-modda.
5. 1992-yil 2-iylda qabul qilingan "Ta’lim to‘grisida"gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni // O‘zbekistoi Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. - 1993. - № 6. - 268-modda.
- 6.Tangirova X. O‘zbekiston madaniyati va san’ati tarixi fanidan ma’ruza materiallari // Elektron resurs. www.ursu.uzpak.uz/ursulib/taqdimot/madaniyat/tarix/27.htm
- 7.XX ayer boshlarida turkiston yoshlari //Elektron resurs. Rejim dostupa: www.huquqburch.uz/?lang=ru&p=maq13
- 8.XX ayer boshlarida turkiston yoshlari// Elektron resurs. Rejim dostupa: www.huquqburch.uz/?lang=ru&p=maq13
- 9.O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunni.
- 10.O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni.
- 11.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti, 2021. – 464 b.

¹⁷O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan qonuni bilan tasdiqlangan Kadrlar taylorlash milliy dasturi // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. - 1997.